

PEDAGOGIK MAHORAT

9
—
2023



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAKLARNI O‘QITISH ASOSIDA O‘QIB VA TINGLAB
TUSHUNISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi
gayimovlaziz432@gmail.com*

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ertak bilan tanishtirish jarayonida o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirishga doir fikr-mulohazalar, birinchi sinfdan to‘rtinchisinf gacha bo‘lgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklaridagi bazi ertaklar tahlili hamda ularning o‘qitish usullari, darsliklarda keltirilgan ertaklar tasnifi borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, audio ertak, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, malaka, qiyin so‘zlar, namunali o‘qish, so‘z boyligi, savodxonlik, matn.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ НА
ОСНОВЕ ОБУЧЕНИЯ СКАЗКАМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

В данной статье даны комментарии по вопросам совершенствования навыков чтения и понимания на слух в процессе знакомства учащихся младших классов со сказками, анализ некоторых сказок в учебниках «Родная речь и грамотность чтения» с первого по четвёртый класс и их мнения по этому поводу, представлены методы обучения, классификация сказок, представленных в учебниках.

Ключевые слова: сказка, аудиосказка, понимание прочитанного, понимание на слух, владение трудными словами, модель чтения, словарный запас, грамотность, текст.

**IMPROVING READING AND LISTENING COMPREHENSION SKILLS BASED ON THE
TEACHING OF FAIRY TALES IN PRIMARY GRADES**

This article analyzes opinions on improving reading and listening skills in the process of familiarizing elementary school students with a fairy tale. Analysis of some fairy tales in the textbooks "Native language and reading literacy" from the first to the fourth grades and methods of teaching them, the classification of fairy tales presented in the textbooks.

Keywords: fairy tale, audio fairy tale, reading comprehension, listening, skill possession, difficult words, reading pattern, vocabulary, literacy, text.

Kirish. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar voqeа-hodisalarни kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

2. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’nolari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlardan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

3. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish;

4. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

Tahlil va natijalar. Ertak xalq og‘zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo‘lib, ularni barcha yoshdagi maktab o‘quvchilari sevib va qiziqib o‘qiydilar. Ertaklarda hayot juda oddiy va shu bilan birga nihoyatda qiziqarli tarzda qalamga olinadi. Ertaklar bolalarni hayotni tushunishga, unga tayyor bo‘lishga oddiy hamda fantastik sarguzashtlar orqali o‘rgatib boradi.

Ertaklarning aksariyatida aniq hayot tasviri fantastik unsurlar bilan qo‘silib ketadi va shu bois juda qiziqarli bo‘ladi hamda sehrli tuyuladi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida juda ko‘plab xalq og‘zaki ijodidan namunalar berilgan. Bular ichida ertak janri yetakchilik qiladi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ertak bilan amaliy tanishtirilib boriladi.

Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni tez o‘ziga maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgu kuchning - yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi.

Ertak tili ko‘pincha sodda va ravon bo‘ladi. Unda bir xil so‘z va iboralarining qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochkuz obrazlarga bulinadi.

Ertakning tarbiyaviy qimmati shundan iboratki, bolalar unda halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo‘lishini istaydilar.

Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko‘nikmasini o‘stiradi.

O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun? ... nima uchun jazolandi (yoki rag‘batlantirildi)? Nima uchun ertakdagи ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba’zilaridan esa, aksincha, yuz ugiradi? kabi savollarga javob berish uchun o‘ylaydilar, ertak qahramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o‘rganadilar. Masalan, “Chumolining jasorati” [5: 7-8], ertagidagi asosiy fikr vatanparvarlik nimaligini bolalarga sodda qilib tushuntirishdan iboratdir. Ertakda shunday voqeа asos qilib olingen: “Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg‘ir deyarli yog‘mabdi. Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovg‘a o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o‘tloq yaqinidagi buloqdan mitti og‘izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi” [5: 7-8]. Bu voqeani kuzatib turgan o‘rmonda yashovchi boshqa jonzotlar chumolini mazammat qila boshlaydilar. Ular “Seni bu ozgina suving bilan bu dahshatlil olovni o‘chirib bo‘lmaydi. Joningni asrasangchi” deyishadi. Bu gapni eshitgan chumoli suv tashishdan to‘xtamasdan shunday deydi: “– To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman” [5: 8]. Oddiygina va mittigina chumolining bu gapi barcha hayvonlarni hayratga qoldiradi va ular bu gapdan ta’sirlanib, chumoliga yordamga shoshadilar. Birlashgan uzar degandek. Bir pasda olov uchiriladi.

Mazkur ertak ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljalangan. Shu sabab ertak matni uncha katta emas, shu sinf yoshiga mos tarzda tanlangan. Ikkinci sinf o‘quvchilariga bu ertak mazmun-mohiyatini to‘liq tushuntirish uchun katta pedagogik mahorat kerak. Chunki bu yoshdagи bolalar vatan tushunchasini hali to‘liq anglab olmagan bo‘ladilar. Birinchi navbatda o‘qituvchi ertak matnini namunaviy tarzda, baland ovozda, bexato va ravon o‘qib berishi kerak. O‘qituvchi o‘qish jarayonida ertak mazmunidan kelib chiqib, ba’zan ovozini baland, ba’zan past, ba’zan hayajonli, ba’zan da’vatkor qilib o‘qiydi. O‘quvchilar ustozlari o‘qishidan ertak mazmunini anglay boshlaydilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tushunchalarga nisbatan so‘zlarni ko‘proq biladilar, ba’zi o‘quvchilar esa ayrim so‘zlearning ma’nosini yetarlicha tushunib yetmaydilar. Shuning uchun o‘qituvchi ertak matnin mazmunini o‘quvchilarga to‘la yetkazishda rang-barang usullardan foydalanishi kerak. Xususan, muayyan bir mavzuni ongli o‘zlashtirilishiga ertak tahlili, rang-barang ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, o‘quvchilarining o‘qish malakalarini xisobga olish, o‘quvchilarining mustaqil ishini tashkil etish ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, shuningdek, o‘quvchilar bilan uzlusiz lug‘at ustida ishslash mashg‘ulotlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish singari uslubiy ishlarni amalgalash oshirishning o‘rni va roli beqiyosdir.

O‘qituvchi ertakni maromiga yetkazib o‘qisa, o‘quvchilar uni diqqat bilan, butun vujudlari qulopqa aylanib tinglaydilar. Bunday tinglash esa, ertak mazmunini anglashni ancha osonlashtiradi. Agar shu jarayonda ertakning audio variantidan foydalansa yanada yaxshiroq va samaraliroq natija berishi mumkin. Birinchidan, o‘qituvchi nutqida noxostdan kamchilik bo‘lishi mumkin. Lekin audio variant puxta ishlangan bo‘ladi va hamda sifat jihatdan barcha talablarga mos ravishda yaratilgan bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarga ham audio variantni tinglash ham yangilik va ham juda qiziqarli tuyuladi va ular qiziqib, diqqat bilan uni tinglaydilar. Audio ertagni tinglashda o‘quvchilarni tushunish koefitsentlari yuqori bo‘ladi. Chunki tinglash

ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy samarali usullari hamma narsani o'z ichiga oladi masalan interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o'rganishi mumkin bo'lgan qobiliyat sanaladi. Chunki o'rganishga birozgina ko'proq etibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilandi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatda siz kichik yoki katta talabalar guruhlari bilan ishlastingiz muhim emas, siz o'zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo'llasangiz bas.

Shundan so'ng o'qituvchi qiyin so'zlar ma'nosini o'quvchilarga tushuntirib beradi hamda shogirdlari bilan birgalikda darslikda berilgan topshiriq va savollarga javob topadilar. Bu jarayon ham ertak mazmunini tushunishga yordamchi vazifani bajaradi. Darslikda mazkur ertakni uchun berilgan turli xildagi topshiriq va savollar bolalar yoshiga mos tarzda va qiziqarli usulda berilgan.

Ertakni tushunishning yana bir bosqichi bor. Bu mustaqil o'qib tushunish bosqichidir. Bu jarayon dars vaqtida boshlanib, uyga berilgan topshiriqlarni bajarish vaqtida tugaydi. Dars jarayonida o'qituvchi ertak matnini qismlarga bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'qittiriladi. Yani o'quvchilar belgilangan matn (ertakni bir qismi)ni baland ovozda o'qiyydilar. Qolgan sinfdoshlari ularning o'qishini kuzatib va tinglab boradilar. Bu jarayon ham muayyan tarzda ertak mazmunini tushunishga yordam beradi. Uyda ertakni to'liq va bir necha marotiba o'qib kelish vazifasi beriladi. Bu topshiriqni bajarilishini ota-onalar nazorat qilishlari kerak. Ana shundan keyingini ertak mazmuni to'liq o'zlashtirib olinishi mumkin.

Barcha darsliklardagi ertaklar ana shu va shunga o'xhash tarzda o'zlashtirilsa samarasi ko'proq bo'ladi. O'quvchilarni o'qib va tinglab tushunish malakalarini shu tarzda takomillashtirilsa, bolalar nutqi ham ularni tafakkuri ham tez rivojlanib boradi.

“Chumolining jasorati” ertagida har qanday vaziyatda ham vatanni seva bilish va qadrlash g'oyasi olg'a surilgan bo'lsa, “Sharikning tug'ilgan kuni” [5: 27-30] ertagida yaxshilik qilish va ahillikka undashdan iborat.

Sinf darsligining 1-kitobining 27-30-betlarida berilgan “Sharikning tug'ilgan kuni” ertagi ham o'quvchilarga yaxshi taassurot qoldiradi. Ertak shunday boshlanadi: “Kuz yaqinlashib qolgan edi. Barglar sarg'ayib, suv lar sovib, chug'urchuqlar “majlis” o'tkaza boshlagandi. Shunday kunlarning birida Sharik: – Mening tug'ilgan kumin qachon? – deb qoldi.

Hamma o'ylanib qoldi. To'g'ri-da, taqvimda Neftchilar kuni bor, Quruv chilar kuni bor, hatto Qushlar kuni bor, Itlar kuni esa yo'q” [5: 27-28].

Ertak qahramonlari sevimli itlarini xursand qilish uchun barcha harakatni qilishadi: uning tug'ilgan kuni belgilab olishadi, tug'ilgan kunda sovg'a tayyorlashadi, sovg'alarni tantana bilan topshirishadi. Xullas, Sharikning xursand qilish uchun bor kuchlarini ishlatishadi.

Mazkur ertak bolajonlarga juda yoqadi. Chunki uning asosiy qahramoni Sharik nomli kuchukcha. Bolalar esa kuchukchalarni juda yaxshi ko'rishadi. Ularning barchasi o'zining kuchukchasi bo'lishini xohlaydi. Shu bois barcha 2-sinf o'quvchilar ertak mazmunini ustozlari tomonidan bayon etilayotganda diqqat bilan eshitishadi. Bu jarayonni yanada qiziqarliroq hamda maroqliroq qilish mumkin. Bu uchun mazkur ertakning audio varianti kerak. Darslik talabida bu narsa bor. Darslikning 29-betida shunday topshiriq bor: **“Sharikning tug'ilgan kuni” hikoyasining 2-qismini eshitining.** Bu topshiriq “Audomatnni tinglang” shartli belgisi ostida berilgan. Bundan kelib chiqadiki, ertakning audio matni mavjud va undan foydananik talab etiladi. Shu bois o'qituvchi tomonidan ertakning audio varianti eshittiriladi. O'quvchilar butun vujudlari quloqqa aylanib uni eshitadilar. Ertakni audio variantining yana bir afzallik tomoni shundaki, uni o'quvchi uyida qayta-qayta tinglashi ham mumkin. Buni uyga vazifa sifatida berish mumkin.

Agar audio variantda itchaning ovozi – uning xursand bo'lib vovulashi ham mavjud bo'lsa, bolalarga ta'siri ko'proq bo'ladi. Bu ovozni o'qituvchining o'zi ham taqlid qilib yaratishi mumkin yoinki, birorta kuchukchaning ovozini yozib olib unga qo'shish mumkin. Bu variant tabbiyyoq chiqadi.

Bundan tashqari darslikda o'quvchilar ertak matnini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun muayyan topshiriqlar berilgan. Yuqorida birinchi topshiriq – ertakni audiomatnini o'qishni aytlik. Ikkinchi topshiriq bunday tarzda berilgan:



Rasmlarga qarab Matroskin va Fyodor amaki Sharikka nima sovg'a qilmoqchi bo'lishgani haqida gapirib bering.

Darslikdagi bu shartli belgi o‘quvchilar diqqatini rasmlarga qaratadi. Ular shunday shartli belgilar ostida berilgan topshiriqni bajarish orqali ertak mazmunini yanada chuqurroq va to‘g‘riroq tushunib oladilar. Yuqorida topshiriqdan keyin darslikda quyidagi rasmlar berilgan:



“Sharkning tug‘ilgan kuni” ertagi darsligda 2 qismga bo‘lib berilgan. Matnni ikki qismga bo‘lib berilganda 2-qism o‘rnida 3-qism ketgan. Bu xatoni o‘quvchilar darsligida tuzatib chiqish kerak. O‘qituvchi shtrix orqali 3 ni o‘rniga 2 yozib chiqsa texnik xato bartaraf etiladi. Aks holda o‘quvchilarni chalg‘itishi mumkin bu holat.

Darslikning 30-betida quyidagi shartli belgi va “o‘qing” topshirig‘i berilgan



Bu shartli belgidan keyin “Sharkning tug‘ilgan kuni” ertakining 2-qismi berilgan. Demak, o‘quvchilar ertakning 2-qismini mustaqil shqishlari lozim. Albatta, o‘qituvchi nazorati ostida. O‘qituvchi navbat bilan o‘quvchilarni o‘rnidan turg‘izib ertak matnining muayyan qismini o‘qittiradi. O‘qiganlarini mazmunini aytib berishni talab etadi. Bu holatda o‘qituvchi har xil metodlardan foydalanishi mumkin. Eng asosiysi o‘quvchilarni o‘qib tushunish malakalarini takomillashtirib borishi kerak. Masalan, bir o‘quvchi ertak matnining bir qismini o‘qiydi, ikkinchi o‘quvchi uni mazmunini aytib beradi. Keyingi navbatda eshitib ertak mazmunini aytib bergen o‘quvchi o‘qiydi, avval o‘qigan o‘quvchi ertak mazmunini aytib beradi. Bu metod ham qiziqarli va ham o‘quvchilarni to‘liqroq‘ qamrab olishga, imkon qadar ko‘proq o‘quvchilarni bu topshiriqni bajariga jalb etish imkonini ham beradi.

Ertakda xalq o‘z hayotini o‘zi hikoya qiladi, shuning uchun o‘quvchilar ertakni o‘qish bilan ma’lum davrdagi xalk hayotini, uylari va orzu-istikclarini bilib oladilar.

Ertak o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak bog‘lanishli nutqni o‘stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagи o‘quvchilar ertakni juda qiziqib obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o‘ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ertaklarni yaxshi tushunishlari uchun avval uning audio variantini yoki o‘qituvchining namunali qiroatidan uni tinglab tushunishlari lozim. Yaxshi qilingan qiroat yo sifatlari audio nashr o‘quvchilarga erta mazmunini yaxshilab anglab olishiga amaliy yordam beradi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning o‘zlar ertakni mustaqil o‘qib tushunishlari lozim. Bu mashq ham ularga ertak mazmunini to‘liq tushunib olish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko‘proq o‘qitiladi. Bular sirasiga quyidagi ertaklarni kiritish mumkin: “Qo‘rqoq bug‘u” [7: 33-34], “Tulki bilan Laylak” [7: 66-67], “Qirq qurbaqa” [8: 38-40], “Qarg‘avoy” [8: 69-70], “Tulki va sher” [8: 100-102].

Mazkur ertaklarni ham yuqorida takidlaganimizdek, o‘qituvchining namunali o‘qishini eshitib, ertakning audiomatnini eshitish hamda o‘quvchining o‘zi mustaqil o‘qishi orqali yaxshi o‘zlashtirib olish mumkin.

Ertaklarni o‘qib va tinglab tushunish malakasini takomillashtirish metodlari juda ko‘p. Bu, albatta, birinchi navbatda o‘qituvchining mahoratiga, raqamli texnologiyalarni o‘z darsiga qay darajada foydalana bilish layoqatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Matn bilan ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javob berish, o‘quvchilarning o‘zlar savol tuzib, javob berishlari, so‘z bilan grafik rasm chizish, reja tuzish, o‘qish, tinglash, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-biriga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar.

Ertakni mustaqil o‘qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tasavvur etishga yo‘naltiriladi. Shu bois mustaqil o‘qish ertak mazmunini tushunish tomon tashlangan birinchi qadam hisoblanadi. O‘quvchi ertakni o‘qiyotgan vaqtida unung mazmunini eslashga harakat qiladi, ertak qahramonlarini qiyofasi, ularning aytgan gaplarini xotirasida saqlaydi.

Ertak matni ustida ishslashning oxirgi bosqichida “Ertakda sizga juda yoqqan joyini o‘qing (qayta-qayta mustaqil o‘qish: ertakni birinchi marta o‘qish, o‘qituvchi mazmunini tushuntirgandan keyin o‘qish, hamsinfi o‘qiyongan vaqtida xat olib borish, o‘ziga yoqqan joyini tanlab o‘qish, uyda o‘qish (vazifa)), nima uchun yoqqanini ayting, hayotingizda mana shu ertakdagiga o‘xshash voqealar bo‘lganmi?” kabi savol-topashiqlar yordamida o‘quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi. Qayta-qayta o‘qish ertak mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘quvchining lug‘at boyligini oshishiga ham sabab bo‘ladi.

Ertak o‘quvchilar uchun ertakligicha qolishi va bolalar hayotidagi hodisalarga avtordek yondashishga o‘rganishlari uchun shuning o‘zi kifoya.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi ertaklar bilan ham tanishadilar: “Zumrad va Qimmat” [4:9], “G‘alati ziyofat” [4:33], “Mehnatkash choynak” [5: 82], “Vatan” [7: 10-12], “Ikki to‘lqin” [7: 46-49], “Ikki irmoq” [7: 55-58], “Inson nima uchun hammadan kuchli?” [7: 79-81], “To‘ng‘ich farzandning donoligi” [7: 103-104], “O‘g‘rining qismati” [8: 118-120] kabi ertaklarni ham o‘qiydilar. O‘quvchilarni bunday ertaklarni o‘qishga tayyorlash ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishga tayyorlash kabi bo‘ladi, ertakni o‘qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi.

Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

Ertak ustida ishslashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak hajmi katta bo‘lmasa) o‘qituvchi aytib berishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridaqilarni hisobga olganda, ertakni o‘qish va tinglab tushunish darsining qurilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash (ertakka doir rasmlar bilan tanishtirish, ertak mazmuniga yaqin mavzuga suhbat tashkil etish);
- 2) o‘qituvchining ertakni tamunalii va ifodali o‘qishi;
- 3) ertakning audio variantini eshittirish;
- 4) ertakni o‘quvchilar qanchalik tinglab tushunganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish (darslikdagi savol va topshiriqlar yordamida);
- 5) ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish;
- 6) o‘qiganlarni tahli qilish va aytib berish;
- 7) ertak matnidagi ayrim tasviriy vositalar, sinonim so‘zlarni topish, ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish;
- 8) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda va ovoz chiqarib o‘qish);
- 9) ertakni aytish;
- 10) umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);
- 11) ma’lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qitish (uyda vazifa misolida);
- 12) vazifani tekshirish va yakunlash (nima uchun ertakni qiziqib o‘qidik?);
- 13) uyda (ota-onalar yordamida) boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib ertakni o‘qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Adabiyotlar:

1. Safarova R. G‘. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablarida Ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti. ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 1998. – 236 b.
2. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzlusiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari. –Toshkent, 2021. -261 b.

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 9

3. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
5. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun/ K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun/ K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik/ K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.
8. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik/ K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.

20.	МУСАЕВА Нодира Низомовна, МУСАЕВА Нафиса Азимжоновна, ЛИТВИНА Виктория Богдановна	Технология модульного обучения, основанная на предметно-деятельностном подходе	118
21.	ОМОНОВ Азиз Носир ўғли	Ички ишлар органи ходимларида ижтимоий интеллектнинг илмий-психологик асослари	124
22.	РАХИМОВА Индира Игоревна	Влияние ценностей на социальную активность	129
23.	САЙДВАЛИЕВА Шодия Риҳсихужса кизи	Концептуально-системообразующие подходы в исследовании этнического самосознания	133
24.	ТАИРОВА Мадинабону Бахтияровна	Бўлажак тарбиячиларда касбий фаолиятларини ривожлантириш муаммосининг назарий манбаларда ёритилиши	138
25.	УРИНОВА Шарофат Ахтамовна	Талабалар клиник тафаккурини шакллантиришда вазиятли топшириқлардан фойдаланиш	143
26.	ҲАҚИМОВ Жамишид Оқтимович	“Информатика ва АКТ” курсини ўқитишида инновацион шакллар ва таълим тизимини қуриш тамоиллари	147
27.	SATTAROVA Gulnora Ikromovna	Jismoniy rivojlanshida nuqsoni bo‘lgan o’smirlar hissiy va irodaviy sifatlarining korrelyatsiasi	151
28.	HIKMATOV Akmal Sadulloyevich	Nevrolog-shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlantirishning o’ziga xos jihatlari	158

МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

29.	ADIZOVA Nigora Baxtiyorovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning ahamiyati	163
30.	ADIZOVA Nodira Baxtiyorovna	Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni kamol toptirishda muammoli ta’lim texnologiyasining o‘rni	168
31.	AXMEDOVA Zarrina Jamilovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari	173
32.	JUMAYEV Umedjon To‘raqulovich	Art-terapiya vositasida maktabgacha yoshdagি bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	179
33.	QAYIMOV Laziz Mirzo o‘g‘li	Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish asosida o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish	184
34.	SANOYEV G‘aybullo Abduraxmonovich	Boshlang‘ich sinflarda ajdodlar merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	190

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

35.	ALMAMATOVA Manzura Shavkatovna	Pedagogical basis of motivation and attitude in learning a foreign language	195
36.	BAKAYEVA Rayxon Izatovna	O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikni shakllantirishning asosi sifatida	199
37.	DILOVA Nargiza Gaybullayevna, BAKAYEVA Rayxon Izatovna	Funksional o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn turlari ustida ishslash usullari	204
38.	SHAROPOV Sherzod Shirinboy o‘g‘li	Kooperatsiya asosida til o‘rganish xususiyatlari	213
39.	РАХИМОВА Мухаббат Эргашевна	О приёме сопоставления текстов на уроке литературы	217

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

40.	QAHHOROV Siddik Qahhorovich, JAMILOV Yusuf Yunus ugli	Results of research on the use of software to improve the quality of education	223
41.	RAKHIMOV Nasriddin Nomozovich, BEGMATOV Akram Khasanovich, HAQNAZAROVA	Methods of teaching trigonometric equations and inequalities using the properties of geometric shapes	230